

## THE CONCEPT OF FORCED LABOR

Norqulova D. Z.

PhD. Dots.

Usmanov B. Sh.

irb-120-group student

### Annotation:

This article is about the concept of forced labor, the negative impact of forced labor on the quality of work and suggestions for its elimination.

**Key words:** Principle, presentation, declaration, theory, practice, threat, system.

2019-yil 30-iyul kuni “”Odam savdosi jabrdiydalarini kelib chiqish mamlakatiga qaytarish jarayonida inson huquqlariga amal qilish bo’yicha Dasturamal prinsiplari toplamining ozbek tilidagi nashri taqtimoti doirasida Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuniga bagishlangan brifing bolib otdi. Birifingda Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyeva bizda bolalar mehnati bartaraf etilganligini, lekin majburiy mehnat batamom yoq bolmayotganligini, har kuni ommaviy axborot vositalarida xabarlar chiqayotganligini, majburiy mehnat va odam savdosi bir biri bilan bogliq tushunchalar ekanligini, fuqarolarimiz Rossiya, Qozogiston davlatlariga ishlagani ketib, oz haq huquqlarini bilmay xorlikda yurganligini, odamlarga oz huquqlarini bilishi, talab qilishini orgatishimiz kerakligini takidladi. Aslida, majburiy mehnat muammosi nafaq yurtimizda, balki xalqaro doirada korib chiqiladigan muammolardan biri. Bunga yaqqol misol, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yil 10-oktabr kuni qabul qilgan “ Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi dir. U muqaddima va 30 moddadan iborat bolib, uni qabul qilishdan maqsad, har bir inson va davlat mazkur Deklaratsiyani nazarda tutgan holda marifat va talim orqali shu huquq va erkinliklarni hurmat qilishga komaklashishi lozim. Deklaratsiyaning asosiy goyasi ham odam savdosi, bolalar va majburiy mehnatga barham berish bolib, U har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari elon qilingan ilk xalqaro hujjatdir.

Yurtimizda ham majburiy mehnat masalasi sovet davridan buyon xalqimizni qiynab kelgan muammodir. Mustaqilligimizdan buyon bu mavzuda koplarda maqolalar, ilmiy ishlar va shu bilan birga kitoblar yozildi.

Shunday olimlardan biri, akademik Qalandar Abdurahmonov ham bu borada yetakchi ustozlardandir. U kishi 2019-yilning 16-fevralidada bolib o'tgan "Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot"<sup>6</sup> asarlarining taqdimotida o'zlari so'zga chiqib, darslikni yaratishdan asosiy maqsad har tomonlama yetuk, bilimdon, egallagan kasb-hunariga sodiq, malakali strateg, lider va menejerlik darajalariga mos mobil mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat ekanligini takidladilar. Undan tashqari O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tafsifiya etilgan, Toshkent Davlat Yuridik instituti professori Yo'ldosh Tursinov tomonidan yozilgan "Mehnat huquqi"<sup>7</sup> kitobi ham bu mavzu qanchalik ahamiyatli ekanini ochib berdi.

### **Aslida majburiy mehnat nima va u haqida nimalar bilamiz?**

Majburiy mehnat - jazo tahdidi ostida ishlatishdir. Jazo tahdidlariga esa, ishdan boshatish, ish haqini kamaytirish, lavozimiga o'zgartirish kiritish va hakazolar kirishi mumkin. Vaholanki, Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37- moddasi<sup>2</sup>ga binoan har kimning ish bilan shugullanishi, ishni erkin tanlashi, adolatli mehnat sharoitlari va qonun bilan belgilangan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqi bor.

Majburiy mehnat esa nafaqat yurtimizda balki xalqaro normativ hujjatlar bilan taqiqlangan. Ammo bazi hollarda bu faoliyat majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

Ular quyidagilardir:

- harbiy yoki muqobil xizmat togrisidagi qonunlar asosida;
- favqulodda hoallarda;
- qonuniy kuchga kirgan sud qarorida;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda;

Faqatgina, yuqorida korsatilgan hollardan tashqari, biror bir shaxs tomonidan boshqasiga zoravonlik va tahdidlardan foydalangan holda mehnat shartnomasida korstatilmagan majburiyatni yuklash va ishsiz shaxslarni ozlari xohlamagan biror bir ishga majburiy jalb qilish togridan togru majburiy mehnat deb baholanadi.

Bu esa Ozbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 37-moddasi ikkinchi bandi, Ozbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 7-moddasi, Ozbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 451-moddasi, Ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining " Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro mehnat standartlariga muvofiq fuqorolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini taminlashga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish togrisidagi" <sup>3</sup> 2017-yil 4-oktabrdagi SQ-231\_III\_son qarori va shuningdek Ozbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "

O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qoshimcha chora tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 10-may kuni 349-sonli qarori bilan qat'iyan man qilingan.

Hozirgi kunda majburiy mehnatga jalb qilganligi uchun qanday jazo qo'llaniladi?

Fuqarolarni ish beruvchi yoki mansabdor shaxs majburiy mehnatga jalb qilishi mamuriy yoki jinoyiy javobgarlini nazarda tutadi. Mamuriy javobgarlik kodeksi<sup>4</sup>ning 51-moddasiga binoan, qonunda nazarda tutulgan hollar bundan mustasno, mamuriy majburlash har qanday shaklda ishlashga eng kam oylik ish haqining 1 barobaridan 3 barobarigacha, 5 barobardan 10 barobargacha jarima solishga sabab boladi. Majburiy mehnatga jalb qilishning ijtimoiy xavf-xatar darajasiga qarab, mansabdor shaxslar Jinoyat kodeksi<sup>5</sup>ning 205, 206-moddalari boyicha aybdor deb topilishi mumkin. Ogir holatlarga kora, eng kam ish haqqining 300 barobaridan 600 barobarigacha miqdorda jarima, yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanishi mumkin.

Ayni vaqtda biz fikr yuritayotgan holat siyosiy-ijtimoiy huquqbuzarlik bilan bir qatorda, shaxsiy hayotga ham tajjavuzdir. Bu bilan ishchi va xodimlarning oz ishlaridan kongillari qolishiga sababchi bolamiz xolos. Asosiy muammomiz esa mehnat unimdorligini, ish vaqti bilan bogliq deb oylashimizdadir. Tog'ri, qanaqadir qisqa vaqt ichida qilinishi kerak bolgan vazifalarda bu uslub ozini oqlar, ammo ammo umumiy holat haqida bunday deya olmaymiz. Aslini olganda ham, majburiy mehnat bor joyda inson qadr qimmatini poymol boladi. Xodimning oziga bolgan ishonchi, shu bilan birga ishga bolgan layoqati, shijoati sonadi. Agar biz bu tizmda foydalanishda davom etsak, atrofimizda oz qadrini bilmagan, huquqlarini talab qila olmaydigan, maqsadi moddiy manfaatdan boshqa hech narsa bolgan shaxslargina qoladi. Endi tassavur qiladigan bolsak, aynan mana shu holat talim tizimida sodir bolsa, hech shubhasiz maktablarni ham, Oliy talim muassasalarini ham bilimli oqituvchi va murabbiylar tark etadi. Repititorlik bilan shugullanar, yoki biror tadbirkorlik qilar, ammo ozini kamsitgan holda bu tizimda qolmaydi.

Natijada, biz kelajak avlod deb jar solayotganimiz-yoshlar, yuqorida takidlaganimiz kabi xudbin insonlar qolida qoladi. Talim sifatining pasayishi ham, korrupsiya holatlari ham mana shu nuqtadan boshlanadi. Bu birgina talim tizimining qisqacha pragnozi xolos.

Agarda siz hozirgi kunda majburiy mehnat bilan shugullanayotgan bolsangiz, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining mehnat inspektorlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan boglanishingiz kerak.

Mamlakatimizdagi tizimlardan majburiy mehnatni chiqarib yuborish, bir tomonlama ish emas. Avvalo, barcha korxonalar va tashkilotlarga bilm va saviyasi bilan yetakchilik qila oladigan kuchli huquqshunoslarni kiritishimiz kerak. Ular, o'z navbatida, xodimlar bilan o'tqazilayotgan

tadbirlarda, o‘zini davlat va ishchilar o‘rtasidagi asosiy ko‘prik ekanligini uqtira olishi, shu bilan birga mamlakat qonunlari kadrlar manfaatlarini himoya qilishini tushuntirishi kerak.

Bu rejaning boshlanishi bo‘lib, jarayon bir necha yilni olishi mumkin. Mana shu vaqt oralig‘ida, huquqshunoslar nafaqat majburiy mehnatga jalb qilish, balki boshqa buzilgan haq huquqlarni tiklashi, xodimlarda huquqiy ongni shakillantirib borishi kerak.

Avvalo, huquqshunosning rahbarlarga o‘rgatishi kerak bo‘gani, ishchilarni kuchli bosim ostida ushlab turish, ularning ijtimoiy ahvoli bilan qiziqmaslik, faqat plan bo‘yicha ishlash bu sovet davridan qolgan sarqit ekanini anglatish va bu holatga nisbatan qarshi imunititni shakillantirishi kerak. Agar, mana shu holat bir necha yil davom etsa, keyin bu borada huquqshunoslarga hojat qolmaydi. Xuddi, Sovet davridagi tasirni hali ham to‘xtata olmayotganimiz kabi, bu tizm ham bir yo‘lga qo‘yilsa, yillar o‘tib, o‘zini oqlaydi degan umiddaman.

Davlatimiz va muhtaram yurtboshimiz buyuk yoldan bormoqda. Yani, Yangi Ozbekiston-Yangicha dunyo qarash bilan yangi-yangi marralarni zabt etish yoli.

Bu sharaflı yolda yurtimizning tezroq odimlashi uchun esa har bir shaxs, har bir fuqoro oz masuliyatini his qilishi lozim. Jonajon yurtimizga bolgan sevgimiz va muhabbatimizni korsatish vaqti keldi. Endi biz ham ota bobolarimizdan meros qolgan bu Vatan uchun nimadir qila olamiz. Buning uchun bizga barcha imkoniyatlar berilmoqda. Agar, shu kungacha buyuk sinovlardan otkan matonatli ona xalqimiz birlashsa, nafaqat majburiy mehnat balosini, rivojlanishimiz yolida bizga tushov bolayotgan barcha illatlardan xalos bolamiz.

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Inson\\_huquqlari\\_umumiy\\_deklaratsiyasi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_umumiy_deklaratsiyasi) Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
2. <http://constitution.uz/oz/clause/index> Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
3. <https://lex.uz/docs/-3730223?ONDATE=14.05.2018> Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
4. <https://lex.uz/acts/-97664> Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
5. <https://lex.uz/docs/-111453> Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
6. <http://tsue.uz/?p=7312> Murojat etilgan sana:(22.12.2020)
7. Tursinov. Mehnat huquqi. Darslik, “Moliya‘p nashriyoti, 2002 yil. 208 bet